

Date: 27th October-2025

SUD VA HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI IDORALAR

Usmonova Dilyora Ikramovna

Namangan Davlat Universiteti Yuridik fakulteti EU-24 guruh 2- bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada sud tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi idoralarning jamiyatdagi o'rnini, ularning vazifalari hamda o'zaro hamkorlik mexanizmlari chuqur yoritilgan va huquqni muhofaza qiluvchi idoralar jamiyatda qununiylikni ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, fuqarolarning huquqlarini himoya qilish uchun xizmat qiladigan davlat organi hisoblanishi yoritilgan. Sud hokimiyati davlat hokimiyatining mustaqil tarmog'i sifatida qonun ustuvorligini ta'minlovchi asosiy institutlardan biridir. Shuningdek prokuratura, ichki ishlar organi, tergov, advokatura, davlat xavfsizlik xizmati kabi organlarning huquqiy maqomi, funksiyalari va faoliyat yuritish prinsiplari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sud tizimi, huquqni muhofaza qiluvchi organ, prinsip, funktsiya, konstitutsiya, qonunlar, demokratiya, huquqiy ong, huquqiy madaniyat.

Аннотация: В статье подробно рассматривается роль судебной системы и правоохранительных органов в обществе, их задачи и механизмы взаимодействия. Подчеркивается, что правоохранительные органы являются государственными органами, призванными обеспечивать законность в обществе, бороться с преступностью и защищать права граждан. Судебная власть, как самостоятельная ветвь государственной власти, является одним из основных институтов, обеспечивающих верховенство права. Также анализируются правовой статус, функции и принципы деятельности таких органов, как прокуратура, органы внутренних дел, следствие, адвокатура и служба государственной безопасности.

Ключевые слова: Судебная система, правоохранительный орган, принцип, функция, конституция, законы, демократия, правосознание, правовая культура.

Abstract: The article deeply examines the role of the judicial system and law enforcement agencies in society, their tasks and mechanisms of interaction, and highlights the fact that law enforcement agencies are state bodies that serve to ensure legality in society, combat crime, and protect the rights of citizens. The judiciary, as an independent branch of state power, is one of the main institutions ensuring the rule of law. The legal status, functions, and principles of operation of such bodies as the prosecutor's office, internal affairs agency, investigation, bar, and state security service are also analyzed.

Keywords: Judicial system, law enforcement agency, principle, function, constitution, laws, democracy, legal awareness, legal culture.

Kirish

Sud huquq islohotlari taraqqiyoti mustaqillikning asosiy poydevorini mustahkamlashga xizmat qiladi. Mustaqillikning ilk kunlaridam boshlab bu borada xarakterlar amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov " Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va



Date: 27th October-2025

fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi''da bu borada amalga oshirilgan ishlar to'g'risida " Mamlakatimizda demokratik yangilanishning bugungi bosqichidagi eng muhim yo'nalishlardan biri – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash , shaxs huquq va mafaatlari ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud – huquq tizimini demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir'' deb ta'kidlab o'tdilar. [1]

Islohotlar huquqni muhofaza qilish tizimini keng qamrovli qayta shakllantirish milliy davlatchilik asosiy g'oyasi hisoblandi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning fuqarolik jamiyatni shakllantirishdagi roli, sud- huquq islohotlarining samaradorligi hamda inson huquqlarini ta'minlashdagi dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda demokratik davlat qurilishi, qonun ustuvorligi va fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini kafolatlash borasidagi ehtiyojlar bilan bevosita bog'lidir.

O'zbekistonda qisqa tarixiy muddat ichida milliy davlatchilikni shakllantirishning demokratik asoslari yaratildi. Mamlakatimizda barcha rivojlangan davlatlardagi kabi uch hokimyatga, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimyatiga ajratildi. Xalq farovonligi yo'lida kuchli huquqiy davlatlardan fuqarolik jamiyati sari ildam qadam qo'yish maqsadida erkin bozor munosabatlariga asoslangan kuchli iqtisodiyot barpo etildi. Shu tarzda, Vatanimiz xalqaro huquqning to'laqonli va teng huquqli subyektiga aylanadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, faoliyatini ham tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib boriladi desam ham xatò bo'lmaydi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish, qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlash huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bugungi kundagi asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Asosiy qism:

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar jamoatning qonuniy, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy tartibini muhofaza qilish va shaxsiy huquqlarini himoyat qilishda muhim rol o'ynaydigan instansiyalardir. Ularning vazifalari, huquqiy munosabatlarni tartibga solish, inson huquqlarini muhofaza qilish va o'zgartirish, qonunlarni amalga oshirish va shaxsiy huquqiy munosabatlarda kelib chiqqan munosabatlar bo'yicha muhim qarorlar qabul qilishdir. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar qonuniylik va huquq tartibotni muhofaza qilish, inson huquq va erkinliklarini himoyalash, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash bilan shug'ullanuvchi rasmiy davlat organi. O'zbekistonda ularning faoliyati tegishli qonunlar asosida tartibga solinadi. Shu jumladan, (" O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sud to'g'risida''gi qonun, "Sudlar to'g'risida''gi qonun, "Prokuratura to'g'risida''gi qonun, "Advokatura to'g'risida''gi qonun va sharhlari.)[2] Shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasida demokratik umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko'ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi. Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi," deyilgan. Ushbu masalada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining boshqa bir qator moddalarida o'z aksini topgan. Jumladan fuqarolar



Date: 27th October-2025

o'zlarining huquq va erkinliklarini qonuniy yo'l bilan ta'minlanishini talab qilishga haqlidir. [3]

Yuridik Adabiyotlarda huquqni muhofaza qilish faoliyatini o'ziga xos yondashuvlari mavjud. Huquqni muhofaza qilish faoliyati yuzasidan izlanishlar olib borgan bir qator mualliflarning qarashlari, fikrlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni takidlash joizki, ushbu masalaga yondashuvlar hamda qarashlar turlichadir. Jumladan, ("V.M.Semyonov, A.P.Rijakov, V.N.Galuzo, B.N.Gabrichidze, K.F.Gusenkov va M.A.Kovalev"lar,) o'z qarashlarini keltirib o'tgan.

Huquqni muhofaza qilish organlari – bu davlat organlari va jamoat tashkilotlari bo'lib, ular o'z faoliyatini qonun hamda demokratik prinsiplarga asoslangan holda amalga oshiradilar. qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlaydilar, fuqarolar, mehnat jamoalari, jamiyat va davlatning huquq va erkinliklarini himoya qiladilar, huquqbuzarlikning oldini olish va qonun hamda huquqiy tartibotni buzgan shaxslarga davlatning majburlov yoki jamiyatning ta'sir choralari qo'llaydilar. Ushbu tushunchalar o'z mohiyatiga ko'ra davlat organlarining barchasiga tegishlidir chunki ularni prinsiplari vazifalariga xosdir degan edi V.M.Semyonov tomonidan berilgan tarifda.

Bu qoida sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, huquq tartibot organlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarimizda mustahkamlangan.

A.P. Rijakovning fikriga ko'ra, huquqni muhofaza qiluvchi organlar bo'lib, qonunga muvofiq jismoniy (yuridik) shaxslarning hamda davlatning huquq hamda qonuniy manfaatlarini muhofaza qiluvchi hamda qonuniylik va huquqiy tartibotni ta'minlovchi muassasa, mansabdor shaxs yoki boshqa shaxslar (masalan, sudya, tergovchi, yuridik yordam ko'rsatuvchi fuqaro) hisoblanadi. Umuman olganda ushbu tushuncha etarli darajada to'liq bo'lmay, unda faqatgina huquqni muhofaza qilish faoliyatining ayrim elementlari to'g'risida gap boradi.

V.N. Galuzoning fikricha: "Huquqni muhofaza qiluvchi organ o'z ichiga alohida elementlarni olgan murakkab tashkiliy tizimni aks ettiradi. Ushbu tizim zahirida, odatda, Rossiya Federatsiyasining federativ tuzumi, uning ma'muriy hududiy bo'linishi hamda harbiy-ma'muriy bo'linishi yotadi".

Berilgan fikrlarni B.N. Gabrichidze asosli ravishda tanqid qilib, davlatning harbiy-ma'muriy bo'linishi hech qanday vaziyatda huquqni muhofaza qilish organlarining butun tizimiga ta'sir ko'rsatmasligini ta'kidlaydi.

Ushbu mutafakkirlar fikrlari huquq tartibot idoralariga nisbatan turli rakurslardan berilgan. Darhaqiqat huquq tartibot idoralari shaxslar manfaatlarini muhofaza etadi, ma'muriy hududiy tizimda faoliyat olib boradi, albatta qonun doirasida vakolatlari mavjuddir.

Mamlakatimizda huquq tartibot idoralari -huquqiy asoslarga ko'ra faoliyat olib boradigan va davlatning vakolatlarini tegishli qismini bajaradigan, ta'sir choralari qo'llash, huquqiy faoliyatni amalga oshirish borasida intizomli tizimdir.

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga hozirgi kunda quyidagi davlat organlari kiradi:



Date: 27th October-2025

1. Prokuratura organlari. O'zbekiston Respublikasi qonuni "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning (yangi tahriri) 2001- yil 29- avgust;

2. Adliya organlari. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda Adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2018- yil 13- apreldagi PF-5415-son Farminiga muvofiq;

3. Davlat xavfsizlik xizmati. "O'zbekiston Respublikasida "Davlat xavfsizlik xizmati to'g'risida" Qonunchilik palatasi tomonidan 2018- yil 15- martda qabul qilingan Senat tomonidan 2018- yil 19- martda ma'qullangan

4. Milliy gvardiya. O'zbekiston Respublikasida "Milliy gvardiya to'g'risida"gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2019- yil 12- noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2019- yil 14- dekabrda ma'qullangan;

5. Davlat bojxona xizmati. "O'zbekiston Respublikasining "Davlat bojxona xizmati to'g'risida"gi qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2018- yil 6- sentabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2018- yil 27- sentabrda ma'qullangan;

6. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-maydagi Elektr energiyasi va tabiiy gaz yetkazib berish hamda iste'mol qilish sohasida to'lov intizomini yanada mustahkamlash, shuningdek, ijro ishi yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5059-son;

7. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti. O'zbekiston Respublikasi "Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi PF-5446-son;

8. Ichki ishlar organlari. O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlar to'g'risida" qonuni. Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 12-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 24-avgustda ma'qullangan.[4]

Huquqni muhofoza qilish idoralarining huquqni qo'llashdagi asosiy yo'nalishlari:

- *fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- *Jamoat tartibini lozim darajada ta'minlash;
- *jamoat xavfsizligini ta'minlash;
- *profilaktik tadbirlar uchun huquqbuzarliklarning oldini olish;
- *huquqbuzarlik faktlarini aniqlash va ularni tekshirish;
- *qonunda belgilangan tartibda aybdorlarni javobgarlikka tortish;
- *belgilangan davlat majburlov choralari ko'rish va huquqbuzarlarni rad qilish;
- *qarorlarning bajarilishini ta'minlash;
- *malakali yuridik yordam ko'rsatish.[5]

Xulosa

"Huquqni muhofaza qiluvchi organlarni faqat va faqat xalq manfaati yo'lida og'ishmay xizmat qiladigan idoralarga aylantirishimiz lozim" deya ta'kidladi muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar, insoniyatning



Date: 27th October-2025



adolatli hayoti kechirishini himoya qilishda katta rol o'ynaydilar. Ular o'z faoliyatlarini transparensiya asosida amalga oshiradilar va jamiyat bilan ochiq aloqada bo'lib, huquqiy axborotlarni tarqatish va huquqiy munosabatlarda hamkorlik qilish bilan jamiyatimizning huquqiy bilim darajasini yuksaltishga xizmat qiladilar. Bugungi kunda O'zbekiston aholisining asosiy qismini yoshlar tashkil qilmoqda shuning uchun yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini bilan odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish zarur. Huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish darkor. Ularning asosiy vazifalari tarkibiga quydagilarni kiritish mumkin masalan, qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq hamda erkinliklarini ta'minlash, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish, O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy tuzumini himoya qilish, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika qilishdan iborat. Umuman olganda davlat organlarining faoliyati jamiyatning deyarli barcha sohalarini qamrab oladi. Bular, xususan, davlat va tashqi siyosatni rivojlantirish, iqtisodiyotni rivojlantirish, aholining farovonligi, fan, madaniyat, ta'limni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ilm-fan, madaniyat, ta'limni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida bevosita yoki bilvosita murojaat qiladi, huquqni muhofaza qilish organi, boshqa muhim funktsiyalarning bajarilishi, ayniqsa xavfsizlikni ta'minlash ularning o'rni salmoqlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"
- 2.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi "O'zbekiston" Toshkent – 2023
- 3.O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi Toshkent davlat yuridik universitetining ixtisoslashtirilgan filiali Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'quv qo'llanma.
4. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. OILA- IJTIMOIIY TARAQQIYOT MANBAI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 20.06.2025. 41-SON. 364-367

- 1.www.lex.uz
2. ru.m.wikipedia.org